| Saidaxmedova Aida Mirzayevna | |
| Xarajatlar hisobini mhxs asosida tan olishning o'ziga xos xususiyatlari | 1010 |
| Xaydarova Surayyo Nasirdinovna | |
| Zamonaviy turizm yo'nalishlari yangiliklarini sohaga tadbiq etish va turizm bozorini rivojlantirishda aqlly (smart) texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati | 1016 |
| Sangirov Utkir Xudoyberdiyevich | |
| Sanoat korxonalarining raqobatdoshligini ta'minlash salohiyati | 1021 |
| To'raev Sardorbek To'raevich | |
| Kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish omillari | 1025 |
| Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li | |
| Agrar soha taraqqiyotida xorijiy investitsiyalarning roli..... | 1031 |
| Ko'chqarov Fayzullo Abdujabborovich, Mamatov Baxadir Safaraliyevich | |
| Ocenka vliyanija vvedeniya cifrovoy valyuty na denegzhnuyu sferyu | 1041 |
| Якубова Ш.Ш. | |
| Importance of staff service quality at uzbek national restaurants in uzbekistan..... | 1046 |
| Shodiyona Sanginova | |
| Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari..... | 1051 |
| Azizova Zilola Lochin qizi | |
| Biznes sohasi uchun oliy ma'lumoti boshqaruvin kadrlarini sifatli tayyorlash masalalari..... | 1057 |
| Shabnam Djumaniyazova | |



| | |
|--|------|
| Hududlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda xorijiy tajriba..... | 1064 |
| Bozorov Ilyos Isomiddinovich | |
| To'qimachilik mahsulotlarini xalqaro sifat standartlari asosida yevropa ittifoqiga eksport qilish imkoniyatlari..... | 1071 |
| Raximova Moxigul Isroiljanova | |
| Natural Language Processing of Cognitive Metaphors in Eco-Marketing | 1074 |
| Bakhtiyor Djurakulovich Safarov, Abdusaidova Gulhayo Bakhridin qizi | |
| Sug'urta kompaniyalarning investitsion faoliyatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni | 1079 |
| Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li | |
| Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarishning chiziqsiz modellari | 1083 |
| Shirin Zafar qizi Tursunkodjayeva | |



INVESTITSIYA PORTFELINI SHAKLLANTIRISHDA MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHNING CHIZIQSIZ MODELLARI

ORCID: 0009-0000-2340-9667

Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi

PhD, Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarishning chiziqsiz modellari, xususan, refleksivlik, “shovqinli savdo”, kogerent bozor, fractal bozor, heterojen bozor, moslashuvchan bozor, kashf qilinuvchi bozor, yangilik-rivoyat va subyektivlik bozori kabi gipotezalar yoritilgan. Ushbu metodologiyalarni kelib chiqishi, mohiyati va nazariy ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: fond bozori, investitsiya portfeli, moliyaviy risk, metodologiya.

Abstract: This article covers nonlinear models of financial risk management in the formation of an investment portfolio. In particular, hypotheses such as reflexivity, "noisy trading", coherent market, fractal market, heterogeneous market, flexible market, discovery market, novelty-narrative, and subjective market are studied. The origin, essence, and theoretical importance of these methodologies are analyzed.

Key words: stock market, investment portfolio, financial risk, methodology.

Аннотация: В данной статье рассмотрены нелинейные модели управления финансовыми рисками при формировании инвестиционного портфеля. В частности, такие гипотезы, как рефлексивность, «шумная торговля», согласованный рынок, фракタルный рынок, неоднородный рынок, гибкий рынок, рынок открытий, новизна-повествовательный и субъективный рынок. Анализируются происхождение, сущность и теоретическое значение этих методологий.

Ключевые слова: фондовый рынок, инвестиционный портфель, финансовый риск, методология.

KIRISH

XX asrning 70-yillardan boshlab chiziqli modellar to'laqonli rivojlanishiga ulgurmay, bir vaqtning o'zida uning haqiqiyligiga shubha bilan qarash boshlangan. Shunga ko'ra, investitsiya portfelini shakllantirish metodologiyasining keyingi bosqichlarida chiziqli modellar va “Samarali bozor gipotezasi” ning kamchiliklarini bar-taraf etuvchi, moliya bozorining haqiqiy holatini to'g'ri baholovchi bir qancha konsepsiylar ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiylar investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqaruvchi chiziqli bo'limgan modellarning rivoji bilan bog'liq bo'lgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval. Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni chiziqsiz modellari evolyutsiyasi.

| Gipoteza | Asoschisi | Mohiyati |
|-------------------|---|--|
| Refleksivlik | J.Soros (1987) | moliyaviy instrumentlarning narxi investorlar qabul qilgan qarorlariga bog'liq |
| “Shovqinli savdo” | Shleifer va Summers (1990) ¹ | U moliyaviy bozorlarda investorlarning hissiy reaktsiyalari, kayfiyati va kognitiv tarafkashliklarini tushunish muhimligini ta'kidlaydi. |
| Kogerent bozor | Tonis Vaga (1990) ² | Moliyadagi modellashtirish va nochiziqli dinamikani tushunish zarurati ko'rsatadi. |
| Fraktal bozor | Edgar Peters (1994) ³ | Investorlar bir hil (homogeneous) emas, balki “investitsiya ufq” ⁴ iga qarab turlicha (heterogeneous) ekanligini tushunish zaruratini ko'rsatdi |

1 A.Shleifer, and L.H. Summers. (1990) “The noise trader approach to finance”, The Journal of Economic Perspectives, Vol. 4 No. 2, pp. 19-33.

2 T. Vaga, (1990) “The coherent market hypothesis”, Financial Analysts Journal, Vol. 46 No. 6, pp. 36-49.

3 E.E.Peters. (1994) Fractal Market Analysis: Applying Chaos Theory to Investment and Economics, 1st ed., Wiley, New York.

4 Investitsion ufq investor investitsiya qilishni kutayotgan vaqtini yoki investitsiya qilish orqali moliyaviy maqsadlariga erishishni rejalashtirgan vaqtini anglatadi.



| | | |
|-------------------------------|--|--|
| Heterojen bozor | Ulrich Muller va boshqalar (1995) ⁵ | bozor ishtirokchilarining xatti-harakatlardagi xilma-xillik moliyaviy bozorlarni shakllantirishda muhim rol o'ynashini taklif qildi. Bu xilma-xillik risk va daromadga, narxlarni aniqlashga, bozor dinamikasiga va tartibga solish masalalariga ta'sir qildi. |
| Moslashuvchan bozor | Endryu Lo (2004) ⁶ | Bozor samaradorligi statik emas, balki har qanday vaqtida turli manfaatdor tomonlar o'tasidagi o'zaro raqobat va ta'sirga qarab dinamik ekanligini tushunish zaruratini ko'rsatdi. |
| Kashf qilinuvchi bozor | Kleinxayer va Mayer (2020) ⁷ | Moliyaviy aktivlar narxini shakllantirishda rivoyatlarning rolini ta'kidlaydi. |
| Yangilik-rivoyat | N.Mangi (2021) ⁸ | Yangi hodisaga duchor bo'lgan muhitda axborotning rolini tushunish zaruratini ko'rsatdi. |
| Subyektivlik bozori | R.Bocher (2022) ⁹ | Empirik moliyaga multidisipliner yondashuvni qo'llash zarurati, xususan, ekonofizika usullarini qo'llash. |

Refleksivlik nazariyasi

Umuman olganda, refleksivlik lotin tilidan teskari, aks ettirish degan ma'nolarni beradi. Ushbu atama yuzaga kelishiga ko'p yillar bo'lgan bo'lsada, uni iqtisodiyotga bog'liqligini birinchi marta 1987-yilda Jorj Soros o'zining "Moliya alkimyosi" ilmiy ishida olib chiqqan. J.Soros fikriga ko'ra, moliya bozorida moliyaviy instrumentlarning narxi investorlar qabul qilgan qarorlariga bog'liq. ya'ni, moliya bozoridagi reallik shunchali aks ettirilmaydi, balki investorlar tomonidan shakllantiriladi. Aynan refleksivlik moliya bozorida yuzaha kelishi mumkin bo'lgan hodisa va investor tomonidan qabul qilingan qarorlar o'tasida ikki tomonlama bog'liqlik mavjudligini bildiradi. Uning ilgari surgan gipotezasi quyidagi taxminlarga tayanadi:

- moliya bozori kutilayotgan hodisalar rivojiga ta'sir qilishi mumkin;
- moliyaviy bozorda doimo u yoki bu yo'nalishda imtiyozlar mavjud.

"Shovqinli savdo" gipotezasi

Chiziqsiz modellarning asosi bu "shovqinli savdo" gipotezasini rivojlanishi bilan boshlangan. Ushbu gipoteza Fisher Blek tomonidan 1983-yilda "shovqinli savdo" terminini kiritish bilan asos solingan. Unga ko'ra, har qanday ma'lumotni zaruriy axborot sifatida ko'rib, boshqalarda ega bo'lmagan noyob ma'lumotga ega bo'lganday yuqori riska berilib savdoga kirishishadi. Ushbu savdo kirishuvchi investorlarni "shovqinli treydar" deb nomlashgan. Ammo, F.Blek o'z tadqiqotida bu atamaga aniqlik kiritib o'tmagan bo'lsa-da, Shleyfer, Valzman, Sammers va De Long kabi iqtisodchi olimlar ilmiy ishlarida "shovqinli treydar" atamasiga aniqlik kiritib ketdilar. Emperik tadqiqotlar shunday treydlarga individual investor va jismoniy shaxslarni kiritganlar. Tadqiqotlar aynan shu investorlar o'zlarining noratsional harakatlari tufayli tizimli ravishda zararga kirishlari aniqlangan. Ushbu hodisani o'rgangan iqtisodchi olim R.Shiller "shovqin treydar" larining aynan shu harakati moliya bozorida tasodiy narx o'zgarishlariga olib kelishini aniqlagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Sammers va Shlifer "shovqin treydar"lari yondashuvi 2 taxminga asoslanadi: birinchidan, ba'zi investorlar to'liq oqilona emas va ularning risklili aktivlarga bo'lgan talabiga asosiy yangiliklar bilan to'liq asoslanmagan e'tiqodlari yoki hissiyotlari ta'sir qildi; ikkinchidan, "shovqinli savdo" konsepsiyasiga ko'ra moliya bozorda arbitraj operatsiyalar amalga oshirishi mumkin bo'lsa-da, ular o'zining yuqori risk darajasiga ega ekanligi bilan chegaralangan. Ushbu ikkita taxmin birgalikda investorlarning kayfiyatidagi o'zgarishlar arbitrajlar tomonidan to'liq qarshi olinmasligi va hatto fundamental yangiliklarga asoslanmagan bo'lsa ham xavfsizlik daromadlariga haqiqiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aniqladi. Bu asosiy iqtisodiy sharoitlardagi o'zgarishlardan tashqari bozor harakati boshqa omillar bilan ham ta'minlanishi mumkinligi anglatadi. Shunga ko'ra, arbitrajlar harakati risk bilan chegaralanganligi bois, doimiy ravishda ushbu harakatlarga javob qaytara (qarshi tura) olmasliklari mumkin. Bunda investorlar "shovqin treydar"larining ehtimoliy harakatini ko'ra bilishi va investit-

5 U.A.Muller, M.M. Dacorogna, R.D.Dav, O.V.Pictet, , R.B.Olsen, and J.R. Ward, (1995) "Fractals and intrinsic time: a challenge to econometricians", Discussion Paper Presented at the 1993 International Conference of the Applied Econometrics Association, Olsen & Associates, Ascona

6 A.W. Lo. (2004) "The adaptive markets hypothesis", The Journal of Portfolio Management, Vol. 30 No. 5, pp. 15-29, doi: 10.3905/jpm.2004.442611

7 M.Kleinheyer and T.Mayer. (2020) "Discovering markets", Quarterly Journal of Austrian Economics, Vol. 23 No. 1, pp. 3-32, doi: 10.35297/qjae.010050.

8 N. Mangee. (2021) How Novelty and Narratives Drive the Stock Market: Black Swans, Animal Spirits and Scapegoats, Cambridge University Press, New York, NY.

9 R. Bocher. (2022) "The intersubjective markets hypothesis", Journal of Interdisciplinary Economics, Vol. 34 No. 1, pp. 35-50, doi: 10.1177/02601079211032109




siya portfelini shakllantirishdagi qaror qabul qilish jarayonida inobatga olishlari lozim bo'ladi. Vulger va Baker investorlarning aksiya daromadliligini tushuntirish qobiliyatiga bozor o'zgaruvchilari ta'sir qilishiga dalillar kelтирган bo'lsalar, Sitharam unga so'rovlar, Nyukurukva va Sitharam onlayn xabar (matn) lardan olingan ta'surotlar ta'sir qilishini turli emperik tadqiqotlar amalgaga oshirgan holda isbotlashgan.

Kogerent (muvofiq) bozor gipotezasi

1990-yilda Tonis Vaga tomonidan "Kogerent bozor gipotezasi" nomli chiziqsiz statistik model taklif qilindi. Ushbu gipotezaning asosiy taxminlari bozor dinamikasini vaqt bo'yicha ehtimoliy taqsimoti fundamental (iqtisodiy) shartlar va bozorning ba'zi his-tuyg'ulari (guruh ongi) tayanishiga asoslanadi.

Bu gipoteza fond birjasi faoliyatini 4 bosqichga ajratadi. (-rasmga qarang)



1-rasm. "Kogerent bozor gipotezasi"dagi fond birjasi faoliyatini 4 bosqichi¹⁰.

10 Muallif tomonidan ishlab chiqildi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Kogerent bozor gipotezasi” ga ko’ra, bozordagi harakatni investorlarning kayfiyati, investor hissiyotlari kombinatsiyasini va ba’zi umumiy ko’rsatmalarga rioya qilgan holda prognoz qilish mumkinligini taklif qiladi. Ushbu gipotezaning eng farqli jihatni bu uning moliya bozori bosqichlar ajratilganligi, hamda ushbu bosqichlarda ishtirokchilarining harakatlari va yangi ma’lumot qabul qilishlari ham turlicha ekanligi, hamda SBG o’xshab daromadlarning taqsimoti normal taqsimotga emas, balki qimmatli qog’ozlarning kelajakdagi narxlar to’g’risidagi prognozlarni shakllantirish investorlar tomonidan yangi ma’lumotlar baholanish darajasi va qobiliyatiga bog’liq ekanligi bilan harakterlanadi. Agar moliya bozori SBG da belgilangan qoidalarga mos harakatlansa, unda KBG dan olingen xulosalar SBG bilan bir xil bo’ladi, ammo bozorda har xil keskinlik, kurtoz yoki hatto bimodallik kuzatilsa, KBG turli taqsimotlarni qabul qiladi.¹¹

Fraktal bozor gipotezasi

Mandelbrot (1970) va Peters (1991) o’z ilmiy ishlarida moliya bozorida daromadlar taqsimoti chiziqli ravishda o’zgarmasligi, unga turli hil omillar qarshilik qilishini isbotlashdi. Va fraktal bozor gipotezasini yaratishdi. Ushbu gipotezani rivojlanishiga ekonofizika fanining rivojlanishi hamda fraktal geometriya bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilishi kabi tarixiy voqealarning sodir bo'lishi sabab bo'ldi.


1967-yilda B.Mandelbrot moliya bozorining fraktal xususiyati nisbatan moliyaviy instrumentlarning keskin va uzuksiz tebranishlari bilan bog’liqligini ta’kidladi. U birinchilardan bo’lib, tasodifiy ko’ringan murakkab jaryonlarni aslida tasodifiy harakat kasb etmasligini fraktal geometriyadan foydalangan holda o’z yondashuvini yaratgan. Bunda, “fraktal” deganda, bir butun elementlaridan tashkil topgan tizim tushuniladi. ¹² Ushbu yondashuvga ko’ra, hohlagan vaqtida fraktal tuzilmada o’zgaruvchi fraktal bilan chegaralangan holda o’zgaradi. Fraktal tuzilmada o’zgaruvchining kelajakdagi qiymati oldingi qiymatlariga bog’liqligini ko’rsatadi. Aynan fraktal tizim fraktal o’lcham bilan harakterlanadi. ushbu o’lchamni hisoblash uchun bir qancha ko’rsatkichlardan foydalanish mumkin. (misol uchun, Herst ko’rsatkichi)

Bundan tashqari, Mandelbrot qimmatli qog’oz narxlarining o’zgarishiga Nuh (narx o’zgaruvchiligi bilan tavsiflaniadi, ya’ni narxlarning to’satdan va uzuksiz ravishda katta sakrashga erishishiga ishora qiladi) va Jozep effekti (aksiya bahosining tsiklik bo’lmagan harakati hodisasi va uzoq muddatli, uzuksiz xotirasi) ta’sir ko’rsatishini isbotladi.

Hudson va Mandelbrot o’z ilmiy ishlarida fraktal geometriya muhim fan tarmog’i va metodologiyasi ekanligi, hamda nafaqat moliyaviy instrumentlar narxlarining o’zgaruvchanlik qonunini aniqlash uchun, balki optimal investitsiya portfelini shakllantirish, qayta qurish va moliyaviy riskni boshqarish uchun ham qo’llanilishini tadqiq qilishgan.

Peters birinchilardan bo’lib “Fraktal bozor gipotezasi” ni ilgari surdi. Unga ko’ra moliya bozorda moliyaviy instrumentlarning (aynan aksiya) narxi braun harakati bilan bog’liqligi, hamda uning daromadliligi uzoq muddatli xotira bilan tavsiflangan fraktal taqsimotga bog’liqligini taxmin qildi.¹³

“Samarali bozor gipotezasi”



“Fraktal bozor gipotezasi”

2-rasm. Samarali va fractal bozor gipotezalarining rivojlanish yilnomasi.

11 Steiner, M. and Wittkemper, H.-G. (1997), “Portfolio optimization with a neural network implementation of the coherent market hypothesis”, European Journal of Operational Research, Vol. 100 No. 1, pp. 27-40, doi: 10.1016/S0377-2217(95)00339-8.

12 Mandelbrot B, The fractal geometry of nature, New York, W.H. Freeman, 1982

13 Peters E. Fractal Market Analysis. Applying Chaos Theory to Investment & Economics. J. Wiley & Sons. New York. 1994.



TAHLIL VA NATIJALAR

Peters moliyaviy dinamika katta vaqt oralig'ida chiziqli bo'Imagan deterministik dinamikaning va kichik vaqt oralig'ida "rangli shovqin"ning kombinatsiyasi ekanligini ko'rsatadi. Aynan "dinamik shovqin" moliya bozorida narxlarining va trendlarning noaniq o'zgarishiga olib kelishi bilan yuqori moliyaviy riskni keltirib chiqaradi. Bunda, "dinamik shovqin" qanchalik yuqori bo'lsa, narx o'zgarish yo'naliishi ham shunchalik noaniq bo'ladi.

"Dinamik shovqin" kuzatiladigan yoki dinamik bo'ladi. Kuzatiladigan shovqin dinamikaga ta'sir ko'rsatmaydi, asosan baholashdagi xatoliklar tufayli yuzaga keladi, shuning uchun ma'lumotlarning buzilishiga olib keladi. Dinamik shovqin esa, spekulativ harakatlar yoki tashqi omillar ta'sirida dinamikaga ta'sir ko'rsatadi.

Heterojen bozor gipotezasi

1995-yilda, aynan FBG rasmiylashtirilgandan 1 yil o'tib, Muller va boshqa bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan "Heterojen bozor gipotezasi" (HBG) ilgari surildi. Ushbu gipotezaga ko'ra, turli investorlar bir xil yan-gilikni savdo chastotasiga ko'ra turlicha talqin qilishi mumkinligi va investorlar bir xil emasligi, fond birjasi investorlarning yangiliklarga munosabati xarakterli muomala chastotasi va vaqt ufqiga bog'liq bo'lishi ko'rsatiladi. Fraktal bozor, moliyaviy riskdan qochish darajasidagi farqlar va ishtirokchilarining heterojen bozordagi faoliyati turli vaqt ufqlari ta'siri ostida bo'lishidan tashqari, tranzaksiya xarajatlari, shuningdek institutsional chekllovlar bilan tavsiflanishi mumkinligini aniqlashdi.

Moslashuvchan bozor gipotezasi

Moslashuvchan bozor gipotezasi (MBG) samarali bozor gipotezasi (EMH) va xulq-atvor gipotezalarini bir-lashtiruvchi muqobil iqtisodiy nazariya hisoblanadi. Ushbu gipoteza asoschisi 2004-yilda, asli Gong Konglik amerika iqtisodchi olimi, Massachusetts Texnologiya Instituti professori Endryu Lo hisoblanadi. Olim investorlar aslida moliya bozorida faktik bilimlarga tayangan holda ratsional harakat qiladi va ba'zida bozorlar hissiy va evristik harakat qiladi. Keskin o'zgarishlar kuzatilayotgan davrda hissiyorotga beriladi, o'zlarining shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda xatoga yo'l qo'yadi va keyinchalik o'tmishda yuz bergen voqealardan xulosha chiqarib, kelajakni prognoz qilish, bozor harakatiga moslashish va o'rganish qobiliyatiga ega degan xulosaga keladi. Shunga ko'ra, gipoteza quyidagi taxminlarni ilgari suradi: investorlar o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda harakat qiladi, investorlar xato qilishi mumkin va investorlar xatoni o'rganib unga moslashishadi.

A. Lo ning fikriga ko'ra, investorlarning o'ziga ortiqcha ishonchi, bozordagi o'zgarishlarga haddan tashqari reaktsiyasi hamda investitsiyasini yo'qotishdan voz kechish singari xatti-harakatlari inson xatti-harakatlarning evolyutsion modellariga mos keluvchi tabiiy tanlanish, moslashish va raqobat kabi harakatlarni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra, Lo moliya bozori fizika qonunlari bilan emas, ko'proq evolyutsion biologiya qonunlari bilan bosh-qarilishini ilgari surdi.

Kashf qilinuvchi bozor gipotezasi

Kashf qilinuvchi bozor gipotezasi (KQBG) asoschilarini oqilona harakat qiluvchi investorlar bozorda pasa-yish kuzatilganda irratsional harakat qilishlari va aksincha, irratsional investorlar oqilona harakat qilishlarini tushinishga urinishgan. Olimlar moliya bozordagi uzulish va uzliksizlik holatlari o'tasidagi almashinishlar aslida subyektiv hikoyalar ta'sir qiladi degan hulosaga kelganlar. Ularning fikriga ko'ra, investorlar qaror qabul qilishda turli manbalardan olingen faktlarga murakkablik keltirgani bois ularga tayanmaydi. Olingen ma'lumotlar investorlar tomonidan o'rganiladi, bilimlar boshqa agentlar bilan taqqoslanadi, ammo bilimlar hikoya shaklida bayon etilsa osonligi bois unga ergashish kuzatiladi. Aktivlar narxining shakllanishiga aynan shu umumiy bir-biri bilan almashinilgan rivoyatlar investorlarning individual subyektiv faktlarga asoslangan bilimlaridan ko'ra kuchliroq ta'sir qiladi.

Yangilik-rivoyat gipotezasi

Yangilik-rivoyat gipotezasi (YRG) muallifi Mangi yangi voqealarning vujudga kelganda ma'lumot (axborot)larning roli oshirilishini ta'kidladi. Uning fikriga ko'ra, yangi hodisa yuzaga kelganda noaniqlik kucha-yadi va tendensiya beqarorlashadi. Moliya bozorida bunday hodisalarni "qora oqqush hodisasi" deb yuritiladi. Bu voqealarda investor qimmatli qog'ozlar narxini prognoz qilishda tarixiy ma'lumotlarga emas, balki to'liq bo'Imagan axborot, hissiyot kognitiv ko'rsatmalariga tayanishda muhim rol o'ynaydi. Bunga misol qilib, 2001-yil 11-sentabrdagi terakt, 2008-yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, 2020-yildagi Brexit, neft inqirozi va COVID-19 pandemiyasini keltirish mumkin. Bunday voqealar yuz berishi investorlar kundalik foydalananadigan an'anaviy matematik modellardan voz kechib, tezda omon qolish va himoya mexanizmi ishga tushib, eng optimal modelni topishga intilishlari bilan xarakterlanadi.

Ushbu gipoteza tez-tez takrorlanmaydigan va yangi hodisalarning fond birjasi daromadlariga ta'siri bilan bog'liq investorlarning hissiyotlari rolini oshiradi. YRG o'zida investorlar uchun kelajakni ishonch bilan prognoz qilishlari mumkin bo'lgan modelni topishga ko'mak berishi hamda hikoya dinamikasida his-tuyg'ularni markaziy rolda ekanligini borasida fikrlarni qo'llaydi. Shunga o'xshash, ya'ni moliya bozorida daromad olishda psixologik omil asosiy rol o'ynashi haqidagi fikri 2015-yilda Goldberg va Fridman o'zlarining ilmiy ishlarida yoritganlar. Mangi ham o'z ilmiy ishida qaror qabul qilishda his-tuyg'ularni ustunligini sotsiologiya, nevrologiya va psixologiya

IQTISODIYOT ÉKONOMIKA ECONOMY



sohasidagi olimlarning tadqiqotlaridan havola keltirish orqali dalillar keltirgan. Ushbu olimlar his-tuyg'ularning ta'sirini tasodifiy buzilishlar, prognozlash xatolari, irratsional xatti-harakatlar hamda boshqa ortogonal omillar bilan bog'laydi.

Intersubjektivlik bozori gipotezasi

Intersubjektivlik bozori gipotezasi muallifi Bocher moliyaviy bozorlarda moliyaviy instrumentlar narxini shakllantirishda biologiya, psixologiya va iqtisodiyot fan tarmoqlari birlashuvidan iborat multidisiplinar yondashuvni qo'llash muhimligini isbotlashga intildi. Ammo, Bocher fizika, falsafa, antropologiya va boshqa tarmoq fanlari ham muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan. Uning nazariyasi asosan intersubjektivlikka asosnadi. Iqtisodchi olim Harari intersubjektivlikni "bir necha insonlar o'tasidagi umumiy ma'nio kelishuvi" deb ta'rif beradi. Shunga ko'ra, Bocher qimmatli qog'ozlarning narxining shakllanishi va moliya bozorlari harakatlari bir qancha investorlar tomonidan yagona umumiy g'oya (mafcura) tarzida aniqlanishi mumkin deb ta'kidladi. Uning fikriga ko'ra, hikoya (rivoyatlar) bir aksiya, aktivlar sinfi, bir soha yoki butun mamlakatdagi voqealarga sabab bo'lishi mumkin. Aslida, rivoyatlar murakkab dinamik hususiyatga ega bo'lgan, endogen va ekzogen omillar ta'sirida o'zgaradigan hodisalarga investorlarning tahhillerini umumlashtiradi.

Bocher fikriga ko'ra, intersubjektiv bozor quyidagi xususiyatlarga ega: o'z-o'zini tashkil etish; spekulyasiya; mustaqillik; cheksizlik; chiziqsizlik; dialogik va tanqidiylik.

Xulq-atvor gipotezasi

Xulq-atvor gipotezasi (XAG) ga ko'ra, bozor doimo samarali emas. Tanazzul, inqiroz va xar qanday ko'rinishdagi moliyaviy pufaklar vujudga kelishi davrida moliyaviy instrumentlar har doim ham adolatli qiymatida savdo qilinmasligi va investorlar har doim ham ratsional (oqilona) bo'lmasligi yoritiladi. Ushbu gipotezani ilgari surgan iqtisodchi olimlar psixologiyaga asoslangan nazariyalar orqali moliya bozorida yuz berayotgan anomaliyalarni tushuntirishga urinishadi.

1912-yilda Jorj Seldonning "Qimmatli qog'ozlar bozori psixologiyasi" nomli ilmiy ishida xulq-atvor moliyasi nazariyasi fanga olib kirilgan bo'lsa-da, ushbu nazariya 1979 yilda Daniel Kahneman va Amos Tverskiy tomonidan investorlar investitsiya portfelini shakllantirishda obyektiv ma'lumotlarga tayanishdan ko'ra, subyektiv qaror qabul qilishga moyilliklarini isbotlashganida mashhurlik kasb etdi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya portfelini shakllantirishning mumtoz modellari bilan bir davrda, aynan XX asrning 70-yillardan so'ng bir qator iqtisodchi olimlar ushbu chiziqli modellarning samaradorligi va to'g'rili-giga shubha bilan qarab, hamda ushbu g'oyaning kamchiliklarini bartaraf etishga qaratilgan chiziqsiz modellarning rivojlanishini kuzatdilar. Ularga "Shovqinli savdo", Kogerent bozor, Fraktal bozor, Heterojen bozor, Moslashuvchan bozor, Kashf qilinuvchi bozor, Yangilik-rivoyat va Intersubjektivlik bozori kabi gipotezalarni misol qilish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati

1. Investitsion ufq investor investitsiya qilishni kutayotgan vaqtini yoki investitsiya qilish orqali moliyaviy maqsadlariga erishishni rejalashtirgan vaqtini anglatadi.
2. U.A. Muller, M.M. Dacorogna, R.D. Dav, O.V. Pictet, R.B. Olsen, J.R. Ward. (1995) "Fractals and Intrinsic Time: A Challenge to Econometricians", Discussion Paper Presented at the 1993 International Conference of the Applied Econometrics Association, Olsen & Associates, Ascona.
3. A.W. Lo. (2004) "The Adaptive Markets Hypothesis", The Journal of Portfolio Management, Vol. 30 No. 5, pp. 15-29, doi: 10.3905/jpm.2004.442611.
4. M. Kleinheyer, T. Mayer. (2020) "Discovering Markets", Quarterly Journal of Austrian Economics, Vol. 23 No. 1, pp. 3-32, doi: 10.35297/qjae.010050.
5. N. Mangee. (2021) How Novelty and Narratives Drive the Stock Market: Black Swans, Animal Spirits and Scapegoats, Cambridge University Press, New York, NY.
6. R. Bocher. (2022) "The Intersubjective Markets Hypothesis", Journal of Interdisciplinary Economics, Vol. 34 No. 1, pp. 35-50, doi: 10.1177/02601079211032109.
7. Soros, George. The Alchemy of Finance: Reading the Mind of the Market, Chichester: Wiley, 1987.
8. M. Baker, J. Wurgler. (2007) "Investor Sentiment in the Stock Market", Journal of Economic Perspectives, Vol. 21 No. 2, pp. 129-152, doi: 10.1257/jep.21.2.129.
9. K. Solanki, Y. Seetharam. (2014) "Is Consumer Confidence an Indicator of JSE Performance?", Contemporary Economics, Vol. 8 No. 3, pp. 257-273, doi: 10.5709/ce.1897-9254.144.
10. K. Nyakurukwa, Y. Seetharam. (2022a) "Can a 280-Character Message Explain Stock Returns? Evidence from South Africa", Managerial Finance, Vol. 48 No. 4, pp. 663-686, doi: 10.1108/MF-12-2021-0598.
11. M. Steiner, H.-G. Wittkemper. (1997) "Portfolio Optimization with a Neural Network Implementation of the Coherent Market Hypothesis", European Journal of Operational Research, Vol. 100 No. 1, pp. 27-40, doi: 10.1016/S0377-2217(95)00339-8.
12. B. Mandelbrot. The Fractal Geometry of Nature, New York, W.H. Freeman, 1982.
13. E.E. Peters. Fractal Market Analysis: Applying Chaos Theory to Investment and Economics, Wiley, New York, 1994.



14. M. Kleinheyer, T. Mayer. (2020) "Discovering Markets", Quarterly Journal of Austrian Economics, Vol. 23 No. 1, pp. 3-32, doi: 10.35297/qjae.010050.
15. R. Shiller. (2019) Narrative Economics, Princeton University Press, New York.
16. R. Frydman, M.D. Goldberg. (2015) "Change and Rationality in Macroeconomics and Finance Theory: A New Rational Expectations Hypothesis", Institute for New Economic Thinking, Working Paper Series No. 8, doi: 10.2139/ssrn.2586257, available at: <https://ssrn.com/abstract=2586257>.
17. R. Bocher. (2022) "The Intersubjective Markets Hypothesis", Journal of Interdisciplinary Economics, Vol. 34 No. 1, pp. 35-50, doi: 10.1177/02601079211032109.
18. Y.N. Harari. (2015) Sapiens: A Brief History of Humankind, Illustrated edition, Harper, New York.
19. A. Shleifer, L.H. Summers. (1990) "The Noise Trader Approach to Finance", The Journal of Economic Perspectives, Vol. 4 No. 2, pp. 19-33.
20. T. Vaga. (1990) "The Coherent Market Hypothesis", Financial Analysts Journal, Vol. 46 No. 6, pp. 36-49.
21. E.E. Peters. (1994) Fractal Market Analysis: Applying Chaos Theory to Investment and Economics, 1st ed., Wiley, New York.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

